



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 25 - iyul

VI-63-134-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil II -chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag' ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi oliy majlisi senati kengashining 2022-yil 8-apreldagi QQ-331-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomiga muvofiq tuman budjetining 2023-yil II-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'laridan foydalanish bo'yicha xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi oliy majlisi senati kengashining 2022-yil 8-apreldagi QQ-331-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomi bilan mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo'yilganligi, tuman hokimligi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2023-yil II-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi 4 148,0 mln.so'mni tashkil etganligi va ushbu manbalardan ajratilgan mablag'lar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risida Xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorak yakuni bilan tuman hokimi tomonidan hisobot berib borilishi belgilansin.

4. Tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' oluvchilarining rahbarlari ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishi, shuningdek ushbu mablag'larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha xujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi M.Qobilova zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi

Kengash raisi



Q.Mardonov

Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining
2023-yil 25-iyuldagi
VI-63-134-8-109-K/23-son qaroriga
1-ilova

Angor tuman mahalliy budjetining joriy yil davomiga ko‘ra qo‘shimcha manbalar hisobidan ajratilgan mablag‘lar

T/r	Tashkilotlar nomi	Sohalar bo‘yicha ajratilgan mablag‘ maqsadi	Miqdori (ming.so‘mda)	Foiz hisobida
1	2	3	4	5
	Jami tuman budjetining 2023 yil 2-chorak yakuni bo‘yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar		4 148 000,0	100%
	Jami summasi		3 621 109,0	87,3%
I.	Budjet ma’lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash		1 244 400,0	30%
1,1	Tuman Hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi «Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 5072-sonli qarori ijrosi yuzasidan jamoatchilik fikri asosida belgilanadigan tadbirlar uchun	1 244 400,0	30,0%
II.	Aholini ijtimoiy himoyalashga		1 244 400,0	30%
2,1	Tuman Hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi «Yoshlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 312-sonli qarori ijrosi yuzasidan tuman hokimligi xuzuridagi «Yoshlar daftari» jamg‘armasiga	622 200,0	15,0%

2,2	Tuman Hokimligi	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi «Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 145-son qarori ijrosi yuzasidan tuman hokimligi xuzuridagi «Ayollar daftari» jamg'armasiga	622 200,0	15,0%
III.	Tuman hokimligi va boshqa budjet tashkilotlarini ta'mirlash va moddiy texnika bazasini mustahkamlash hamda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar uchun		1 132 309,0	27%
3,1	Tuman Hokimligi	"Obod qishloq" davlat dasturi asosida tumandagi "Tallimaron" mahallasida piyodalar yo'lakchasini qurish xarajatlari uchun	245 000,0	5,9%
3,2	Tuman Hokimligi	Xotin-qizlar faollariga ish jarayonida qulaylik yaratish maqsadida kompyuter jamlanmasi xarid qilish xarajatlari uchun	57 500,0	1,4%
3,3	Tuman Hokimligi	Tuman hokimligiga kompyuter jamlanmasi xarid qilish xarajatlari uchun	84 500,0	2,0%
3,4	Tuman Hokimligi	Tuman hokimligiga qo'shimcha bino qurish xarajatlari uchun	150 000,0	3,6%
3,5	Tuman Hokimligi	2020-2021 yillarda "e-auksion" elektron savdo platformasi orqali chiqarilgan yer uchastkasini tanlashga doir boshqa materiallarni tayyorlash xarajatlaridan yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun	200 600,0	4,8%
3,6	Tuman Hokimligi	"Obod qishloq" davlat dasturi asosida Tallimaron va To'lqin mahallalar hududlarida piyodalar yo'lakchasi va sug'orish tarmoqlarini qurish yuzasidan loyixa-smeta xujjatlarini tayyorlash xarajatlaridan yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun	120 500,0	2,9%
3,7	Tuman Hokimligi	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 dekabrda PQ-31-sonli qaroriga asosan mahallalarda faoliyat olib borayotgan hokim yordamchilari va markazni moddiy-texnika va mebel jixozlari bilan ta'minlash xarajatlari bo'yicha yuzasiga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun	210 609,0	5,1%
3,8	Tuman Hokimligi	Tuman hokimligiga olingan mebel jixozlaridan yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash xarajatlari uchun	63 600,0	1,5%